

## YER HUQUQI VA YERLARNI MUHOFAZA QILISHNING HUQUQIY CHORA-TADBIRLARI

*“O’zdavyerloyiha” davlat ilmiy loyihalash institutining  
“Sirvilyerloyiha” bo’linmasi direktori V.A.Maxmirzayev.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yer huquqi va yerkarni muhofaza qilishning huquqiy chora-tadbirlari, yer huquqining ahamiyati va yer muhofaza qilish bilan bog’liq munosabatlar haqida so’z boradi.

**Kalit so‘zlar:** O’zbekiston Respublikasi, konstitutsiya, yer resurslari, yer huquqi, yer muhofazasi, yer munosabatlari, qonun, yuridik, yer kodeksi, moddalar, yer tuzish.

Yer huquqi — huquqning yer munosabatlarini tartibga soluvchi sohasi. Yer munosabatlari yerdan foydalanish, ayrim turdag'i yerkarning huquqiy tartibi, yer tuzish va hokazolarni o’z ichiga oladi. Fuqarolik huquqi normalari Yer huquqining o’zagini tashkil etadi.

Yer huquqida, shuningdek, ma’muriy va ekologiya huquqi normalari ham muhim ahamiyatga ega. Yer huquqining normativ ququqiy asosini O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Yer kodeksi, Yer kadastro to’g’risidagi, «Qishloq xo’jalik kooperativlari (shirkat xo’jaligi) to’g’risida»gi, «fermer xo’jaligi to’g’risida»gi, «dehqon xo’jaligi to’g’risida»gi qonunlar tashkil etadi.

O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko’ra, yer umummilliy boylik, u davlat muhofazasida bo’lib, yerdan oqilona foydalanish talab etiladi. Yerga egalik qilish O’zbekiston Respublikasi Yer kodeksiga ko’ra, xususiy mulk, doimiy yoki vaqtinchalik foydalanish, ijara, bir umrlik meros qilib qoldiriladigan egalik huquqi asosida amalga oshiriladi.

Yer huquqi ma’lum tizimga ega. Bu tizim umumiyligi, alohida va maxsus qismlarga bo’linib, ular bir qancha tartibotlardan iborat. Yer huquqining umumiyligi qismi tartibotlari fan tarmog’i va qonunchilikning rivojlanishi uchun asos bo’ladigan eng muhim holatlar, qoidalar yoki tamoyillarni aks ettiradi. U yerga nisbatan mulk huquqi, yer uchastkalariga bo’lgan huquq, davlat boshqaruvi, yer tuzish va yer kadastrini yuritish, yerni huquqiy muhofaza qilish, yer qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik kabi tartibotlarni o’z ichiga oladi.

Yer huquqining alohida qismiga qishloq xo’jaligiga mo’ljallangan yerlar, aholi punkti yerkarni, sanoat, transport, mudofaa yerkarni, alohida muhofaza etiladigan hududlar yerkarni, o’rmon fondi, suv fondi yerkarni, zaxira erlar tartibotlari kiradi.

Yerni muhofaza etuvchi qonunlar yerga nisbatan xo’jasizlarcha munosabatda bo’lishdan muhofaza etadi. Yerdan xo’jasizlarcha foydalanish deganda yuridik vajismoniy shaxslarning yerni yaxshilash, tuproqni shamol, suv ta’sirida yemirilishdan

va tuproq holatini yomonlashtiruvchi boshqa jarayonlardan himoya qilish majburiyatlarini bajarmaslik, hamda yer uchastkalari qanday maqsadlar uchun berilgan bo`lsa o`sha maqsadlarda foylanmaslik tushuniladi.

Qonunda belgilanishicha yerdan foydalanuvchilar tuproq unumdarligini oshirish yuzasidan samarali choralarni ko`rishlari, tuproqni shamol va suv ta`sirida yemirilishdan saqlash yuzasidan tashkiliy-xo`jalik, agrotexnika, o`rmon-melioratsiya va gidrotexnika tadbirlarini amalga oshirishlari, yerlarning sho`rlanish, zax bosish, ifloslanish holatiga yo`l qo`ymasliklari, begona o`tlar bosishini oldini olishlari lozim. Yer qonunchilagini ushbu talablarini bajarmaslik yerdan xo`jasizlarcha foydalanish hisoblanib, uni muhofaza rejimini buzish deb qaraladi.

Yerlarni muhofaza qilish huquqiy chora-tadbirlari deganda qonun normalarida o`rnatilgan yerdan foydalanish va muhofaza qilishga oid buzilgan huquqlarni tiklash hamda huquqbazarliklarni jazolashga taalluqli bo`lgan qoidalar yig`indisi tushuniladi. Yerlarni muhofaza qilishning huquqiy chora-tadbirlari O`zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to`g’risida”gi, “Qishloq xo`jalik kooperativlari (shirkat xo`jaligi) to`g’risida”gi, “Fermer xo`jaligi to`g’risida”gi, “Dehqon xo`jaliklari to`g’risida”gi qonunlar, Ma`muriy javobgarlik, Jinoyat, Fuqarolik, Mehnat, Yer kodekslari normalarida o`z ifodasini topgan.

Bu normalarda yerlardan foydalanish qoidalarini buzganlik, yerlarni muhofaza qilish bo`yicha qonun talablarini bajarmaganlik uchun tegilshicha jazo choralari belgilangan. Yer kodeksining 90-moddasida yer to`g’risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik masalasi belgilangan.Unga ko`ra, yerni muhofaza qilish qoidalarini buzganda ham aybdor shaxslar qonunda belgilangan tartibda javobgar bo`ladilar. Jumladan:

yerlardan belgilangan maqsadda foydalanmaganlikda;

qishloq xo`jaligi yerlarini va boshqa yerlarni yaroqsiz holga keltirganlikda, ularni kimyoviy va radioaktiv moddalar, ishlab chiqarish chiqindilari va oqova suvlari bilan ifoslantirganlikda;

yerlarning holatiga salbiy ta’sir ko’rsatadigan ob’ektlarni joylashtirganlikda, qurbanlikda, loyihalashtirganlikda, foydalanishga topshirganlikda;

yerlardan foydalanishning tabiatni muhofaza qilishga oid talablarini bajarmaganlikda;

vaqtincha egallab turilgan yerlarni qaytarish muddatini buzganlikda yoki yerlarni belgilangan maqsadda foydalanishga yaroqli holatga keltirishga oid majburiyatlarni bajarmaganlikda;

o’zboshimchalik bilan pichan o’rganlikda va chorva mollar boqqanlikda;

yovvoyi o’tlar va zararkunandalarga qarshi kurash choralarini ko’rmaganlikda;

yerlardan xo'jasizlarcha foydalanganlikda, yerkarning holatini yaxshilash hamda tuproqni suv va shamol eroziyasidan va tuproq holatining yomonlashuviga olib keladigan boshqa jarayonlardan saqlash majburiyatlarini bajarmaganlikda.

Yerlarni muhofaza qilishning jinoiy-huquqiy choralari O`zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi1ning to`rtinchi bo`limida (193-204 -moddalar) o`rnatalgan.

Masalan, Jinoyat Kodeksining 196-moddasida ko`rsatilishicha, yerkarni ifloslantirish yoki buzish odamlarning ommaviy ravishda kasallanishi, hayvonlar, parrandalar yoki baliqlarning qirilib ketishi yoki boshqacha og`ir oqibatlarga sabab bo`lsa, eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yilgacha ahloq tuzatish ishlari yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Yoki shu kodeksning 197-moddasida yerdan foydalanish shartlarini yoki ularni muhofaza qilish talablarini buzish og`ir oqibatlarga sabab bo`lsa, eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima, yoki uch yilgacha ahloq tuzatish ishlari yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O`zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida belgilangan yerni muhofaza qilish sohasidagi jinoyatlar tarkibi ekologik huquqbazarlik natijasida og`ir oqibatlarning vujudga kelishi bilan bog`liqdir. Bularga insonning o`limi, odamlarning ommaviy ravishda kasallanishi, hayvonlarning qirilib ketishi, ko`p yoki ancha miqdorda zarar yetkazilishi va boshqa og`ir oqibatlar kiradi. Mazkur moddalarda ko`rsatilgan boshqacha og`ir oqibatlar har bir alohida holda ekologik huquqbazarlikning og`irligini inobatga olgan holda huquqni qo`llovchi organlar tomonidan belgilanishi lozim.

O`zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996 yil 20 dekabrdagi 36-sonli «Atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquqbazarliklar to`g`risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida»gi Qarorida atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquqbazarliklar to`g`risidagi ishlarda sudlar tomonidan e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan holatlarga tushuntirishlar berilgan.

Xususan, ushbu plenum qarorining 9-bandida, "Jinoyat kodeksining 194-moddasida javobgarlik belgilangan atrof muhitni ifloslanganligi to`g`risidagi ma'lumotlarni qasddan yashirganlik deganda, aybdor shaxs ekologik vaziyatning ahvoli to`g`risida umuman yoxud o'z vaqtida ma'lumot bermaganlik harakatlarini (harakatsizligini) tushunmoq lozim. Bunday ma'lumotlar haqiqatga muvofiq kelmasa (atrof muhitning ifloslaganligi ko`rsatkichlarini kamaytirib ko`rsatish va hokazolar), ular buzilgan hisoblanadi" deb keltirilib, unda atrof muhitni ifloslanganligi to`g`risidagi ma'lumotlarni qasddan yashirganlik tushunchasiga tushuntirish berilgan.

Qarorda keltirilgan tushuntirishlar sudlar uchun majburiy hisoblandi. Yer qonunchiligi huquqbazarliklari uchun ma'muriy javobgarlik eng ko'p qo'llaniladigan javobgarlik turidir. Ma'muriy javobgarlikka tortishga ma'muriy huquqbazarlik asos bo'ladi. Qonun hujjatlarida ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g`ayri huquqiy, aybli (qasddan yoki ehtiyoitsizlik oqibatida) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik ma'muriy huquqbazarlik deyiladi.

Yerlarning huquqiy holatini buzganlik uchun O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi1ni 60, 65-69 moddalarida javobgarlik belgilangan. Mazkur kodeks quyidagi huquqbazarliklarni nazarda tutadi:

yerdan o'zboshimchalik bilan foydalanish; yer bilan bog'liq bo'lgan g`ayriqonuniy bitimlar tuzish;

yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazish;

yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallah; yerlardan xo'jasizlarcha foydalanish yoki ularni yaroqsiz holga keltirish;

yerlarni kimyoviy va radioaktiv moddalar hamda oqova suvlar bilan ifloslantirish;

yer berish tartibini buzish;

vaqtincha egallab turgan yerlarni o'z vaqtida qaytarib bermaslik yoki ularni yaroqli holga keltirmaslik;

yer tuzish loyihalardan o'zboshimchalik bilan chetga chiqish;

davlat yer kadastro qoidalarini buzish; yerdan foydalanish to'g'risidagi hisobotlarni buzib ko'rsatish;

axborotlarni berishdan bo'yin tovlash yoki noto'g'ri axborot berish va boshqalar.

Yer muhofaza qilish bilan bog'liq munosabatlarga bevosita daxldor normalar ham mavjud. Xususan, atrof tabiiy muhofaza qilish qoidalariga riosa etmaganlik uchun O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 89, 89, 91, 95, 96-moddalarida javobgarlik ko'zda tutilgan.

Bularga: o'simliklarni himoya qilish vositalari va boshqa dorilarni tashish, saqlash hamda qo'llash qoidalariga riosa qilmaslik, ishlatish taqiqlangan va ishga yaroqsiz bo'lib qolgan kimyoviy moddalarni zararsizlantirish bo'yicha qoidalarini buzish, sanoat va o'zga chiqindilarni tashish, joylashtirish, utilashtirish, ko'mib tashlash chog'ida tabiatni muhofaza qilish talablarini buzish, tabiiy muhitni tiklash, tabiiy zaxiralarni qayta hosil qilish va tabiiy muhitga zararli ta'sir ko'rsatish oqibatlarini bartaraf etish choralarini ko'rmaslik hamda loyihalarni davlat ekologik (sanitariya-ekologik) ekspertizasining ijobil xulosasisiz ruyobga chiqarish kabi huquqbazarliklar kiradi.

Yerni huquqiy muhofaza qilishda ma'muriy qonunlarning roli alohida ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi

Kodeksida yer muhofazasiga qarshi qaratilgan bir qator hatti-harakatlar uchun javobgarlikni belgilovchi normalar o`z ifodasini topgan.

Chunonchi, ushbu kodeksning 60-moddasida yerdan o`zboshimchalik bilan foydalanish yoki yerga egalik huquqini bevosa yoki yashirin shaklda buzuvchi bitimlar tuzish, yerdan foydalanish huquqini boshqalarga berish, yer uchastkalarini o`zboshimchalik bilan egallab olganlik uchun fuqarolarga eng kam ish haqining besh baravaridan o`n besh baravarigacha miqdorda jarima yoki o`n besh sutkagacha muddatga ma`muriy qamoq jazosi belgilangan.

Yoki ushbu kodeksning 65-moddasida yerlardan xo`jasizlarcha foydalanish, ularni yaroqsiz holga tushurish, 66-moddasida yer berish tartibini buzish, 67-moddasida vaqtincha egallab turilgan yerlarni o`z vaqtida qaytarib bermaslik, 68-moddasida xo`jalik ichidagi yer tuzish loyihalaridan o`zboshimchalik bilan chetga chiqish, davlat yer kadastri yuritish qoidalarini buzish, 69-moddada esa chegara va cheklov belgilarini yo`q qilish yoki shikastlantirish hatti-harakatlarini sodir etganlik uchun ma`muriy javobgarlik ko`rsatilgan.

Yerlardan xo`jasizlarcha foydalanish deganda yer ustida qurilish obyektlari qurish paytida tuproqning unumdon qatlamini olmaslik, yer maydonlaridan belgilanganidan boshqa maqsadlarda foydalanish, yerlarni ishdan chiqarish, hosildorligini pasaytirish kabi holatlar tushuniladi. Yer maydonlarini shunday holatga tushirib qo`ygan fuqarolarga eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solinadi (O`zR MJTK 65-modda).

Yer berish tartibini buzish deganda yerlarni qonunda belgilangan shartlarni buzgan holda, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslarga yer berishga to`sinqlik qilish tushuniladi. Bu ma`muriy huquqbazarlik uchun mansabdor shaxslarga eng kam oylik ish haqining uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solinadi (66-modda). Tasdiqlangan yer tuzilishi loyiha hujjatlaridan tegishli ruxsat bo`lmay turib chetga chiqish, tegishli davlat organlari bilan kelishmay turib obyektlarni joylashtirish, ichidan yer tuzish loyihalaridan o`zboshimchalik bilan chetga chiqish deb tushuniladi.

Shunday harakatlar uchun fuqarolar va mansabdor shaxslarga O`zbekiston Respublikasi Ma`muriy javobgarlik to`g`risidagi Kodeksining 68-moddasi sanksiyasida fuqarolarga eng kam oylik ish haqining uchdan bir qisminidan bir baravarigacha, mansabdor shaxslarga ea bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solish mumkinligi ko`rsatilgan. Ma`muriy javobgarlik choralar yerni huquqiy muhofaza qilish sohasidagi huquqbazarlik uchun jinoiy javobgarlikka tortish sabablari bo`lmanida qo`llaniladi.

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qiluvchi organlarning ma`muriy huquqbazarliklarni ko`rib chiqishdagi vakolatlari Ma`muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksning 261-moddasida ko`rsatilgan. Yuqorida keltirilgan normalarda yerni

muhofaza qilish sohasidagi huquqbazarliklar uchun ma'muriy jazo chorasi sifarida jarima undirilishi belgilangan. Uni qo'llashning asosiy tamoyillari O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik tog`g`risidagi kodeksning 25-moddasida belgilangan.

Jarimani qo'llash oqibatida ma'muriy huquqbazarlik sodir etishda aybdor shaxsdan davlat hisobiga pul undiriladi. Yerlarni huquqiy muhofaza qilishda yer qonunchiligidagi o'rnatilgan qoidalar alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Yer Kodeksining 41- moddasida ko'rsatilishicha, yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, yer uchastkalari ijarachilar va mulkdorlarining buzilgan huquqlari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda tiklanishi kerak. Ular huquqlarining buzilishi natijasida yetkazilgan zarar (shu jumladan boy berilgan foya) to`la hajmda qoplanishi kerak. Yer qonunchiligi avvalo qishloq xo`jaligiga mo`ljallangan, ayniqsa sug`oriladigan yerlarni muhofaza qilishga alohida e'tibor beradi.

Chunonchi, Yer Kodeksining 43-moddasida o'rnatilishicha, qishloq xo`jaligiga mo`ljallangan yerlarni qishloq xo`jaligidan o`zga ehtiyojlar uchun boshqa toifadagi yerlarga o'tkazishga alohida hollarda yo'l qo'yiladi. Alohida qimmatga ega bo`lgan unumdar sug`oriladigan yerlar maxsus muhofaza qilinishi lozim va ularning sug`orilmaydigan yerlar jumlasiga o'tkazilishiga yo'l qo'yilmaydi (45-modda). Yer qonunchiligi yerlarni holatiga, ekologiyasiga salbiy ta`sir etadigan obyektlar, imorat va inshootlarni joylashtirishning alohida tartibini belgilaydi.

Yerlarni hosildan qolishdan yoki buzilishdan himoya qilish choralari bilan ta`minlanmagan hamda ekologiya ekspertizasining ijobiylari xulosasi bo`lmagan obyektlarni foydalanishga topshirish va bunday texnologiyalarni qo'llash ta`qiqlanadi (80-modda). Yer qonunchiligidagi yerlarni muhofaza qilish, yer egalari, yerdan foydalanuvchilar huquqlarini muhofaza qilish chora-tadbirlari belgilangan.

Yer Kodeksining 90-91-moddalarida ko'rsatilishicha, yerga nisbatan tuzilgan g`ayri qonuniy bitimlar haqiqiy emas deb hisoblanadi; o`zboshimchalik bilan egallab olingan yerlar qaytarib olinadi; yer uchastkalari olib qo'yiladi.

Demak, yerga nisbatan g`ayri-qonuniy bitimlar tuzilsa, yer qonunchiligi talablari buzilsa yuqorida sanab ko'rsatilgan choralari qo'llaniladi. Biz bu choralarni yer-huquqiy javobgarlik jazo choralari deb aytishimiz mumkin. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanmaslik va uni ifloslantirish natijasida atrof tabiiy muhitga ekologik va iqtisodiy zarar yetkaziladi. Iqtisodiy zarar tabiiy obyektlarning nobud bo`lishi, buzilishi, yo`q bo`lib yoki kamayib ketishi hamda tabiiy resurslardan foydalanuvchilarning xo`jalik manfaatlariga ziyon yetkazilishi bilan namoyon bo`ladi. Masalan, yerlarning ifloslanishi oqibatida yerlarning hosildorlik darajasi kamayib ketadi yoki qishloq xo`jalik maqsadlarida foydalanishga yaroqsiz bo`lib qolishi oqibatida boshqa yer resurslaridan foydalanish yoki yerlarni tozalash uchun ko`shimcha sarf xarajatlarni keltirib chiqaradi.

Ekologik zarar tabiiy sharoitning yomonlashuvi, tabiiy obyektlarning son va sifat jihatdan salbiy o`zgarishlari orqali namoyon bo`lib, insonlarning toza, sog`lom va qulay tabiiy muhitiga bo`lgan huquqlari buziladi. Masalan, yerning ifloslanishi oqibatida odamlarning yashash sharoiti yomonlashib, ular yetishtirishi mumkin bo`lgan qishloq xo`jaligi mahsulotlari kamayib ketishi yoki davlatga topshirilishi lozim bo`lgan mahsulotlarga zarar yetkazilishi mumkin. Ekologik zarar insonlarning sog`lig`iga hamda kelajak avlodlar salomatligiga ziyon yetkazishi mumkin. Odatda, yer resurslariga yetkazilgan zarar ham ekologik ham iqtisodiy ahamiyatga ega bo`lib, salbiy o`zgarishlarni keltirib chiqaradi.

Atrof tabiiy muhitga yetkazilgan zarar oqibatlarini bartaraf etib bo`lmasligi, ya`ni ba`zi tabiiy obyektlar (tabiiy yodgorliklar, qazilma boyliklar)ni qayta tiklanmasligi, ekologik zararning oqibatlari ma'lum muddat o`tgach, vujudga kelishi (o`simplik hamda hayvonot dunyosi obyektlarining turlaridan foydalanish va muhofaza qilish qoidalarini buzish oqibatida ularning keyinchalik keskin kamayib ketishi, noyob va yo`qolib borayotgan toifalarga tushib qolishi) mumkin yoki ushbu oqibatlarni ekologik talablar buzilmagan hududlarda, shu jumladan boshqa davlatlarda vujudga kelishi kabi xususiyatlarga ega.

Yer resurslariga yetkazilgan ekologik zararni undirishning asosiy tamoyillaridan biri bo`lib faqat noqonuniy ravishda yetkazilgan zararni undirish mumkinligi hisoblanadi. Bu qoidaning negizi tabiiy resurslardan har qanday foydalanishda atrof tabiiy muhitga ma'lum darajada salbiy ta`sir ko`rsatilishidan iborat, chunki zamonaviy sharoitda chiqindisiz, ekologik jixatdan sof toza texnologiya mavjud emas va tabiiy resurslardan foydalanmasdan turib ishlab chiqarishni rivojlantirib bo`lmaydi.

Shuning uchun iqtisod va ijtimoiy sohani rivojlantirish maqsadida insoniyat tabiiy resurslarni oqilona ravishda o`zlashtirishi lozim. Ayni vaqtida atrof tabiiy muhitga jiddiy salbiy ta`sir ko`rsatishning oldini olish maqsadida qonun hujjatlarida unga zararli ta`sir ko`rsatishning yo`l qo`yiladigan doiralari (chegaralari) belgilanadi. Ushbu doiralar har bir tabiiy resurs bo`yicha alohida belgiladi.

Masalan, yerkarda mineral o`g`itlar, pestitsit, gerbetsidlarni qo`llash me`yorlari orqali uning tabiiy holati saqlanadi. Shundan kelib chiqqan holda, shuni aytish mumkinki, yerdan foydalanish jarayonida yerga yoki atrof tabiiy muhitga faqat noqonuniy, aybli harakat yoki harakatsizlik natijasida yetkazilgan zarar undiriladi. Atrof tabiiy muhitga yetkazilgan zarar O`zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksini 985-moddasiga, “Tabiatni muhofaza qilish to`g`risida”gi Qonunning 49-moddasiga va Yer kodeksi hamda yer to`g`risidagi tegishli boshqa qonunlarning tegishli moddalariga muvofiq, zarar yetkazgan shaxs tomonidan to`liq hajmda qoplanishi lozim. Ushbu qoida yetkazilgan zararni qoplashning asosiy talabini belgilaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib - intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bolishi kerak. Toshkent, "O'zbekiston", 2017,- 104 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farvonligini garovi. Toshkent, "O'zbekiston", 2017. - 48b.
3. Mirziyoev Sh.M. O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. Toshkent, "O'zbekiston", 2017. "Gazeta.uz".
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
5. Avezbaev S., Volkov S.N. Yer tuzishni loyihalash. Darslik. T.: "Faylasuflar milliy jamiyati", 2007. - 470 b.
6. Avezbayev S., S.N.Volkov. Yer tuzishning ilmiy asoslari.Darslik-T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2006. - 196 b.
7. Babajonov A.R., Raxmonov Q.R, G'ofirov A.J. Yer kadastro. T.: TIMI, 2008 - 220 b.
8. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib - intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bolishi kerak. Toshkent, "O'zbekiston", 2017,- 104 b.
9. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farvonligini garovi. Toshkent, "O'zbekiston", 2017.- 48b.
10. Mirziyoev Sh.M. O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. Toshkent, "O'zbekiston", 2017. "Gazeta.uz".
11. Nigmatov A. Yer huquqi. - T.: "Islom Universiteti", 2001. - 191s.
12. Rahmonov Q.R. Yer resurslarini boshqarish. O'quv qo'llanma. T.: TIMI, 2008.- 161 b.
13. O'zbekiston Republikasi "Yer kodeksi", T.: "Adolat", 2011 y.
14. O'zbekiston Respublikasi yer resurslarining holati to'g'risida Milliy hisobot. T.: "Yergeodezkadestr" davlat qo'mitasi, 2016. - 85 b.
15. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. -T.: Adolat. 2004.
16. O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni.
17. O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi qonuni.
18. O'zbekiston Respublikasining "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to'plami. 42-son. -T.: 2004.
19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yerdan foydalanish samaradorligini oshirish to'g'risida"gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi Farmonlari va qarorlari. -T.: O'zbekiston, 1995.
20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligidagi islohotlarni amalgalash"gi qonunlar ijrosini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2004 yil 11 mart Farmoni.
21. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "1998-2000 yillardagi davrda qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish dasturi to'g'risida"gi 1998 yil 18 mart qarori
22. Internet saytlari: www.Ziyo.net, www.Lex.uz, www.Tsure.ru, www.landkast.com, www.guz.ru.